

MUHABBAT YO‘LDOSHEVA

# SAYOHATCHI PINGVINCHA

2



TOSHKENT-2021

UO‘K: 398.21(575.1)

KBK: 83.8

Y 58

**Yo‘ldosheva, Muhabbat**

**Sayohatchi pingvincha:** ertaklar / M.Yo‘ldosheva –  
Toshkent: “Yurist-media markazi” nashriyoti, 2021. –  
112 b.

ISBN 978-9943-6210-5-3

*Qor bosgan uzoq Janubiy Qutbda yashovchi oq pingvinchaning o‘ziga o‘xshagan oppoq jonivorlarni izlab Shimoliy Qutbga qilgan sayohati bolajonlar uchun nafaqat qiziqarli bo‘libgina qolmay, balki Dunyo okeanida yashovchi suv jonivorlari haqida ham keng ma’lumot beradi.*

**Taqrizchi:**

Risolat HAYDAROVA, yozuvchi,  
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

© **Muhabbat Yo‘ldosheva.**

© **“Yurist-media markazi” nashriyoti, 2021.**

## Oppoq pingvin

Janubiy Qutb yaqinidagi muzdek suvli dengiz sohilida mayda baliqlar ko‘p bo‘lgani uchun ham bu yerda yashaydigan son-sanoqsiz pingvinlar yegulik topishga sirayam qiynalishmasdi.

Kunlarning birida sohildagi toshlar orasida lapanglab yurgan pingvinxon o‘zi qo‘ygan tuxumning po‘chog‘ida darz paydo bo‘lgani va uning ichidagi palapomi yorug‘ dunyoga chiqishga tayyorlanayotganini sezib qoldi. U bolasini ovqatlantirish uchun baliq tutib kelgani dengizga shoshildi. Pingvinxon dengizda mayda baliqchalarning ortidan quvish bilan ovora bo‘lib ketdi-yu, tuxum haqida ham,

dunyoga kelishga urinayotgan mitti pingvincha haqida ham paqqos unutdi-qo‘ydi. Rosa baliq tutib yeb, qorni to‘yganidan keyingina tuxumdan chiqishga tayyorlanayotgan palapomi haqida eslab qoldi.

Pingvixon tezgina kichikroq baliqchani tutib, palapomidan xabar olishga shoshildi. U tuxum po‘stlog‘ini har tarafga sochib tashlab, atrofiga qiziqsinib alanglayotgan mo‘jizani ko‘rdi-yu, hayratidan bolasiga atab tutgan balig‘ini liq etib yutib yubordi-qo‘ydi.

Qanday mo‘jiza, dersiz balki? Gap shundaki, pingvinlarning palapomlari endigina tuxumdan chiqqan paytida kulrang tusda bo‘lishadi. Sal ulg‘ayganlaridan keyin esa pingvinchalar tullashadi va kulrang pat-parlari to‘kilib ketadi.

Ularning o‘rniga oq va qora rangli patlar o‘sib chiqadi.



Ammo pingvinxonga mo‘jiza bo‘lib ko‘ringan bu palapomning butun badani qordek oppoq mayin par bilan qoplangan bo‘lib, na kulrang, na qora patlardan asar ham yo‘q edi. Uning faqatgina tumshug‘i va oyoqchalarigina qizg‘ish tusda edi, xolos.

Pingvinxon hayratdan dong qotib turgan paytda mitti pingvincha butunlay tuxum ichidan chiqib olishga ulgurdi. Shu paytda ota pingvin ham yetib keldi-yu, qordek oppoq bolasiga hayrat ila tikildi.

— Oyijon! — deb chiyilladi pingvincha.

Bolasining ovozini eshitganidan so‘nggina pingvinxon o‘ziga kelib, endigina tuxumdan chiqqani uchun ham ho‘l par va patlari badaniga yopishib qolgan bolasini qanoti ostiga olishga shoshildi.

— Bu qanaqasi... — sekin gap



boshladi ota pingvin.

Biroq pingvinxon uni gapirishga qo‘ymadi.

— Dengizga qayting, baliq tutib keling! — dedi u shoshilib. — Men bu mo‘jizani ko‘rib, shoshganimdan tumshug‘imdagi baliqni yutib yuboribman. Mittivoyimizning qorni och bo‘lsa kerak, hoynahoy...

— Buni qara-ya! — boshini saraklatdi ota pingvin dengiz tomonga o‘girilib, shoshilmaygina lapanglab ketarkan.

— Bolamiz sirayam pingvinga o‘xshamaydi-ya! Agar qimirlamasa, uni qor parchasi deb o‘ylash mumkin!

— Topdim! — to‘satdan xitob qildi ona pingvin. —

Bolamizni “Qor parchasi” deb ataymiz! Axir u rostakam qor parchasiga o‘xshaydi-ku! — ona pingvin o‘ylanib qoldi. — Yo‘q, “Qor parchasi” degan nom judayam uzunlik qiladi.



Yaxshisi, uni “Qorcha” deb ataymiz!

— To‘g‘ri aytasan! — dedi hali uzoqqa ketishga ulgurmagan ota pingvin. — Bu nom menga yoqdi!

— Mengayam yoqdi! — deb chiyilladi mitti pingvincha onasining qanoti ostidan boshini chiqarib.

— Ha, yoqmay qolsin! — mamnun ovozda dedi ona pingvin va tumshug‘i bilan avaylabgina bolasining boshidan bosib, yana qanoti bilan berkitib oldi. — Qor nimaligini bilasanmi, o‘zi?

Mitti pingvincha javob bermadi. Tuxumdan chiqishga urinaverib, rosa charchagani uchunmi yoki onasining badanidan taralayotgan iliq harorat xush yoqqanidanmi, pingvincha qotib uxlab qolgandi.



## Mitti “Qorcha”

Muz bosgan dengiz sohilida yashovchi pingvinlar bolalarini judayam ehtiyotlashardi. To‘g‘ri-da, pingvinlar tuxumdan endigina chiqqan bolasini sal nazardan qochirishsa bormi, uni bo‘ronqush yoki oqchorloq singari surbet qushlar o‘g‘irlab ketib, yeb qo‘yishardi. Dengizda esa tajribasiz yosh pingvinchalarni tishdor kitning tushligiga aylanishdek dahshatli xavf kutib turardi.

Muzloq sohilda yashovchi barcha pingvinlar “Qorcha” deb chaqiradigan oppoq pingvinchaning ota-onasi uni doimo yonida olib yurishga harakat qilishar, hujum qilishi mumkin bo‘lgan dushmanlari borligini tinmay






ta'kidlashardi. Pingvincha esa xuddi aqli bolalar singari doim otasi-onasining aytganini qilar, doimo ularga ergashib, lapanglab yurardi.

— O'g'limiz judayam aqli-da! — derdi pingvinchaning otasi g'ururlanib.

— Mening eslikkina pingvincham! — deb erkalatardi onasi uni qanotlari bilan mahkam quchib.

Pingvincha esa... indamasdi. To'g'risini aytganda, uning ham o'ziga o'xshagan pingvinchalar bilan birga o'ynagisi, ular bilan birga muztepalardan sirpangisi yoki qor ustida umbaloq oshgisi kelardi. Lekin bari bir xil kulrang tusli pingvinchalar o'zlariga sirayam o'xshamaydigan oppoq Qorchani saflariga qo'shishni istashmas, nuqul uning ustidan kulib, mazaxlashaverardi.



— Hoy Qorcha, tag‘in qorlarning orasida yo‘qolib qolmagin-a! — deb mazaxlardi biri.

— Sen aslida semirib ketgan qor parchasi bo‘lsang kerag-ov! — deb kulardi ikkinchisi.

— Ismingniyam toza topib qo‘yishgan-da! — deb qotib kulardi uchinchisi.

Bir oz ulg‘ayganlaridan so‘ng, pingvinchalarning bari tullashdi: ularning bir tekis kulrang pat va parlari to‘kilib, o‘rniga oq va qora tuslilari o‘ sib chiqdi. Endi pingvinchalar xuddi ota-onalari kabi gerdayib, lapanglab yuradigan bo‘lishdi.

Faqatgina Qorcha o‘zining tengdoshlari bilan teng tullagan bo‘lsa-da, qayta o‘ sib chiqqan pat va parlari yana qordek oppoq



ekanligidan xafa edi.


— Bu qanaqasi? O‘g‘lim tullaganidan keyin hammaniki singari patlari o‘shib chiqadi deb o‘ylagandim! — dedi pingvinxon kuyinib.

— Qo‘yaver, o‘g‘limizga oppoq libos ham juda yarashib turibdi-ku! — deb uni yupatdi ota pingvin.

Garchi shunday desa-da, ota pingvinning o‘zi ham o‘g‘li boshqa pingvinlarga o‘xshagan bo‘lishini judayam xohlardi.

Pingvinchaning o‘zi esa yana oppoqligicha qolganidan butunlay tushkunlikka tushdi.

Ulg‘aygani sari pingvincha o‘zining boshqalarga o‘xshamasligidan ezila boshladi. U tengdoshlariga qo‘shilib o‘ynamas, doim yolg‘iz o‘zi muzlar orasida tentirab yurar yoki dengizga sho‘ng‘ib, baliq tutardi.



“Meni tishdor kit yoki dengiz arsloni yeb qo‘ysa ham mayli, — deb o‘ylardi Qorcha o‘zicha. — Birato‘la hammaning mazaxlashidan qutulardim”.

Qizig‘i shundaki, tez-tez sohilga hujum qilib turadigan yirtqich qushlar yoki dengizda poylab turadigan dengiz arslonlari ham nima uchundir Qorchaga hujum qilishmasdi.

“Ey, tavba, hatto pingvinlarning dushmanlari ham meni yeyishga hazar qilishyapti-ya!” deb o‘ylardi Qorcha.



## Oq kit bilan tanishuv

Qorcha odatdagidek sohilda bir o‘zi o‘ynab yurardi. U dengiz sathida suzib yurgan muz bo‘laklaridan birida turar va ikkinchisiga chaqqonlik bilan sakrardi.

Mana, u yana sakradi. Ammo bu sakrashida Qorcha kuchini noto‘g‘ri hisobladimi, negadir muz parchasiga yeta olmadi va suvga yiqilib tushdi.

To‘g‘ri, Qorcha suvga yiqilganidan sirayam cho‘chimadi. Chunki u na quruqlikdagi, na suvdagi yirtqichlar o‘ziga tegmasligiga o‘rganib ketgandi.

Qorcha yiqilgani bahonasida suvga chuqur sho‘ng‘idi, bir nechta mayda



baliqlarni tutib yeb, qornini to‘ydirdi-da, yana muz parchasining ustiga chiqdi va bir muddat oldin yetolmagan muz bo‘lagiga sakradi. Eng qizig‘i, bu safar pingvincha muzga sakrab chiqib olishni uddaladi.

Mana, u yana sakrashga chog‘lanib, oyog‘ini ko‘tardi-yu, qo‘rqqanidan darrov tortib oldi. Chunki suv yuzasi to‘satdan mavjlanib ketdi-yu, dengizdan ulkan oppoq dengiz maxluqining boshi va dumi chiqib keldi. Suv yuzasida qalqib suzayotgan muz bo‘laklari har tomonga otilib ketdi. Qorcha qattiq qo‘rqdi.

“Dadam doim ta’riflaydigan tishdor kit shu bo‘lsa kerak! — dahshat ichra o‘yladi u. — U meni yutib yubormasidan oldinroq qochib qolishim kerak!”

Pingvincha o‘yini tugatib



ulgurmasidanoq, mitti panjalari bilan muzda  
sirgʻanganча lapanglab qocha boshladi.

— Hoy, hoy, shoshma! — deb qichqirdi oppoq  
maxluq.

Qorcha ortiga oʻgirilib ham qaramadi. Oʻrtoqlari  
mazaxlashganida, oʻzini tishdor kit yeb qoʻyishini orzu  
qilsa-da, hozir u dengiz maxluqiga tushlik boʻlishni sirayam  
xohlamayotganini tushundi. Hozir pingvinча tezroq oyisi  
yoki otasining yoniga yetib borishni xohlardi.

— Hoy, mittivoy, toʻxta! — yana chaqirdi oppoq jonivor  
suvdan boshini chiqarib. — Toʻxta, deyaрman, senga!

Men muz ustida yurolmayman. Men seni taniyman!

Toʻgʻrirogʻi, sen haqingda eshitgandim...

— Nima? — deb qichqirdi anча  
nariga borib qolgan Qorча.

